



Raqamli tarbiya kontekstida bolaning avtonomiyasi va nazorat o'rtasidagi pedagogik muvozanat: xalqaro tajribalarning dialektik tahlili

Boltayeva Go'zal Komilovna –
Urganch RANCH texnologiya universiteti
Texnika kafedrası katta o'qituvchisi
E-mail: boltayevagozal334@gmail.com
ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-4767-2897>

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli tarbiya sharoitida bolaning mustaqilligi (avtonomiyasi) va pedagogik-ota-ona nazorati o'rtasidagi muvozanat muammosi dialektik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Bolalarning raqamli texnologiyalardan erkin foydalanishi, raqamli kompetensiya va mas'uliyatni shakllantirish bilan bir qatorda, ularni zararli kontent, kiberxavflar va raqamli qaramlikdan himoya qilish zarurati yoritiladi. Xalqaro tajribalar asosida raqamli muhitda nazorat va erkinlikni uyg'unlashtirish, bolaning yosh xususiyatlariga mos raqamli avtonomiyasini bosqichma-bosqich rivojlantirish hamda oila va ta'lim muassasasi hamkorligini kuchaytirishning pedagogik ahamiyati asoslanadi.

Kalit so'zlar: raqamli tarbiya, bola avtonomiyasi, pedagogik nazorat, ota-ona nazorati, raqamli kompetensiya, raqamli xavfsizlik, kiberxavf, raqamli mas'uliyat, xalqaro tajriba, dialektik yondashuv.

Педагогический баланс между автономией ребёнка и контролем в контексте цифрового воспитания: диалектический анализ международного опыта

Аннотация. В данной статье на основе диалектического подхода анализируется проблема обеспечения баланса между самостоятельностью (автономией) ребёнка и педагогическим и родительским контролем в условиях цифрового воспитания. Рассматривается необходимость не только предоставления детям свободы использования цифровых технологий, формирования цифровой компетентности и ответственности, но и их защиты от вредоносного контента, киберугроз и цифровой зависимости. На основе международного опыта обосновывается педагогическая значимость гармоничного сочетания контроля и свободы в цифровой среде, поэтапного развития цифровой автономии ребёнка с учётом его возрастных особенностей, а также укрепления сотрудничества между семьёй и образовательным учреждением.

Ключевые слова: цифровое воспитание, автономия ребёнка, педагогический контроль, родительский контроль, цифровая компетентность, цифровая

безопасность, киберугрозы, цифровая ответственность, международный опыт, диалектический подход.

Pedagogical balance between child autonomy and control in the context of digital education: a dialectical analysis of international experience

Annotation. *This article analyzes the problem of maintaining a balance between a child's independence (autonomy) and pedagogical and parental control in the context of digital education from a dialectical perspective. It examines the need to provide children with freedom in using digital technologies and to develop their digital competence and responsibility, while simultaneously protecting them from harmful content, cyber risks, and digital addiction. Drawing on international experience, the article substantiates the pedagogical importance of harmonizing control and freedom in the digital environment, gradually developing children's digital autonomy in accordance with their age-related characteristics, and strengthening cooperation between families and educational institutions.*

Keywords: *digital education, child autonomy, pedagogical control, parental control, digital competence, digital safety, cyber risks, digital responsibility, international experience, dialectical approach.*

KIRISH

XXI asrda raqamli texnologiyalarning jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib borishi bolalarning ta'lim olishi, ijtimoiylashuvi, muloqoti va bo'sh vaqtini tashkil etish shakllarini tubdan o'zgartirmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, mobil qurilmalar, sun'iy intellektga asoslangan platformalar va raqamli ta'lim resurslari zamonaviy bolaning kundalik hayotining ajralmas qismiga aylandi. Natijada an'anaviy tarbiya jarayoniga yangi – raqamli tarbiya tushunchasi kirib kelib, pedagogika oldiga bolaning raqamli muhitdagi faoliyatini qanday tashkil etish, uning mustaqilligini qay darajada qo'llab-quvvatlash va xavfsizligini ta'minlash uchun qanday nazorat mexanizmlaridan foydalanish lozimligi bilan bog'liq murakkab savollarni qo'ymoqda. Shu jihatdan bolaning raqamli avtonomiyasini rivojlantirish uning mustaqil qaror qabul qilishi, axborotni tanqidiy baholashi, raqamli vositalardan mas'uliyatli foydalanishi va o'z faoliyatini boshqarishi uchun muhim pedagogik shart hisoblanadi. Mazkur masalaning murakkabligi shundaki, avtonomiya va nazoratni bir-biriga mutlaq qarama-qarshi tushunchalar sifatida talqin qilish yetarli emas. Bolaning raqamli erkinligini keskin cheklash uning mustaqil fikrlashi, raqamli kompetensiyasi va mas'uliyat hissining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Aksincha, cheksiz erkinlik berish bolaning yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelmaydigan raqamli xavflarga duch kelishiga sabab bo'lishi ehtimoli mavjud. Shu bois raqamli tarbiya jarayonida nazoratni taqiqlash va cheklash mexanizmi sifatida emas, balki bolaning bosqichma-bosqich mustaqillikka erishishini ta'minlovchi pedagogik qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida qayta talqin qilish zarur. Muammoni **dialektik yondashuv** asosida o'rganish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Bola raqamli kompetensiyalarni egallagan sari bevosita tashqi nazoratning ayrim shakllari asta-sekin o'zini o'zi nazorat qilish, mas'uliyat va ongli tanlov mexanizmlari bilan almashib borishi lozim. Demak, pedagogik muvozanatning asosiy maqsadi bolani doimiy nazorat ostida saqlash emas, balki uni raqamli muhitda xavfsiz va mustaqil faoliyat yurita oladigan shaxs sifatida shakllantirishdan iborat.

Xalqaro tajriba ushbu masalani o'rganish uchun muhim ilmiy-amaliy asos yaratadi. Turli mamlakatlarda bolalarning internet xavfsizligini ta'minlash, raqamli savodxonligini rivojlantirish, ota-onalar mediatsiyasini takomillashtirish, ta'lim muassasalarida raqamli fuqarolik ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha turlicha pedagogik modellar shakllangan. Mazkur tajribalarni qiyosiy va dialektik jihatdan tahlil qilish raqamli nazoratning samarali shakllari, bolaning yoshiga mos avtonomiya chegaralari hamda oila, maktab va jamiyat o'rtasidagi mas'uliyat taqsimotini aniqlash imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotning maqsadi raqamli tarbiya kontekstida bolaning avtonomiyasi va pedagogik-ota-ona nazorati o'rtasidagi munosabatlarning nazariy asoslarini ochib berish, xalqaro tajribalarni qiyosiy tahlil qilish hamda ularning dialektik birligi asosida optimal pedagogik muvozanatni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot doirasida raqamli erkinlik va xavfsizlik, mustaqillik va mas'uliyat, nazorat va ishonch o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash, shuningdek, bolaning raqamli avtonomiyasini yosh xususiyatlariga muvofiq bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvlarni asoslash muhim vazifa sifatida belgilanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Raqamli tarbiya sharoitida bolaning avtonomiyasi va kattalar nazorati o'rtasidagi munosabat masalasi pedagogika, psixologiya, media ta'lim hamda bolalar huquqlariga oid zamonaviy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. Ilmiy adabiyotlarda ushbu muammo bolaning raqamli imkoniyatlardan foydalanish huquqi, xavfsizlikni ta'minlash, mustaqil qaror qabul qilish, ota-onalar mediatsiyasi va raqamli kompetensiyani rivojlantirish kabi o'zaro bog'liq yo'nalishlarda o'rganiladi. Tadqiqotlarning umumiy xulosasi shundan iboratki, raqamli muhitda bolani to'liq erkin qoldirish ham, uning faoliyatini haddan tashqari cheklash ham barqaror pedagogik natijaga olib kelmaydi. Bolaning avtonomiyasini tushuntirishda E.Deci va R.Ryan tomonidan ishlab chiqilgan o'zini o'zi belgilash nazariyasi muhim metodologik asoslardan biridir. Olimlar avtonomiyani shaxsning o'z faoliyatini ongli ravishda tanlashi va o'z xatti-harakatlarini ichki motivlar asosida boshqarishi bilan bog'laydi. Ularning ta'kidlashicha, "autonomy concerns the experience of integration and freedom", ya'ni avtonomiya shaxsning o'z faoliyatida ichki yaxlitlik va erkinlikni his etishi bilan bog'liq [1]. Mazkur yondashuv raqamli tarbiyaga tatbiq etilganda, bolaning internet va raqamli vositalardan foydalanishini faqat tashqi taqiqlar orqali tartibga solish yetarli emasligini ko'rsatadi. Bola raqamli faoliyatining oqibatlarini anglash, ongli tanlov qilish va o'zini o'zi nazorat qilish ko'nikmalarini ham egallashi lozim.

Raqamli muhitda bolalar huquqlari va imkoniyatlarini tadqiq etgan S. Livingstone mazkur masalani faqat xavf kategoriyasi orqali baholash biryozlama ekanligini ko'rsatadi. Livingstone va Helsper tadqiqotlarida internetdan foydalanish imkoniyatlarining ortishi bilan ayrim xavflarga duch kelish ehtimoli ham oshishi qayd etiladi [2]. Bu holat raqamli tarbiyaning dialektik xususiyatini namoyon etadi: imkoniyat va xavf bir-birini mutlaq inkor qilmaydi, aksincha, bir xil raqamli faoliyat doirasida parallel ravishda mavjud bo'lishi mumkin. Demak, pedagogik vazifa bolani barcha xavflardan ajratib qo'yish emas, balki unga xavfni tanish, baholash va unga nisbatan to'g'ri qaror qabul qilishni o'rgatishdan iborat. S.Livingstone va A.Blum-Ross oiladagi raqamli tarbiya amaliyotlarini o'rganib, zamonaviy ota-onalar oldida bolaning raqamli imkoniyatlarini kengaytirish va uni ehtimoliy xavflardan himoya qilish vazifalari bir vaqtning o'zida mavjudligini ko'rsatadi [3]. Mualliflarning yondashuvida ota-onaning vazifasi bolaning texnologiyadan foydalanishini shunchaki cheklash bilan tugamaydi. Aksincha, ota-ona bolaning raqamli tajribasini tushunishi, u bilan muloqot qilishi va raqamli muhitda ongli tanlov qilish ko'nikmasini shakllantirishga ko'maklashishi kerak. Bu esa "nazorat" tushunchasini kuzatuv va taqiqdan pedagogik hamrohlik va mediatsiya tomon kengaytiradi. Ota-ona mediatsiyasining nazariy

va empirik jihatlari P.M.Valkenburg va hammualliflar tomonidan ham tadqiq etilgan. Ular ota-onalarning bolalar media faoliyatiga munosabatini faol mediatsiya, cheklovchi mediatsiya va birgalikda foydalanish kabi shakllar orqali tahlil qilganlar [4]. Faol mediatsiyada ota-ona bola bilan media mazmuni haqida suhbatlashadi, uning mazmunini izohlaydi va tanqidiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi. Cheklovchi mediatsiya esa vaqt, kontent yoki foydalanish shartlarini belgilash orqali amalga oshiriladi. Ushbu tasnif raqamli tarbiyada barcha bolalar uchun bir xil nazorat modelini qo'llash metodik jihatdan maqsadga muvofiq emasligini ko'rsatadi. Raqamli ota-onalik masalasida Livingstone va Byrne bolalar huquqlariga asoslangan yondashuvni ilgari surib, ota-onalar mediatsiyasi bolaning himoyalanih huquqi bilan birga uning ishtirok etish, axborot olish va raqamli imkoniyatlardan foydalanish huquqlarini ham hisobga olishi kerakligini ta'kidlaydi [5]. Bu fikr nazoratning maqsadi bolaning raqamli hayotini to'liq boshqarish emas, balki uning manfaatlarini himoya qilgan holda mustaqil faoliyat yuritish salohiyatini rivojlantirish ekanligini anglatadi.

Bolaning raqamli huquqlariga oid yondashuv BMTning Bola huquqlari bo'yicha qo'mitasi tomonidan qabul qilingan 25-sonli Umumiy izohda yanada tizimli ifodalangan. Hujjatda "children's rights must be respected, protected and fulfilled in the digital environment", ya'ni bolalarning huquqlari raqamli muhitda ham hurmat qilinishi, himoya qilinishi va ta'minlanishi zarurligi qayd etiladi [6]. Ushbu tamoyil raqamli tarbiyada nazorat va avtonomiya muvozanatini huquqiy-pedagogik nuqtai nazardan tushunishga yordam beradi. Chunki bolani himoya qilish zarurati uning axborot olish, o'z fikrini ifodalash, ta'lim olish va raqamli jamiyatda ishtirok etish imkoniyatlarini asossiz cheklashga olib kelmasligi kerak.

UNICEFning *The State of the World's Children 2017: Children in a Digital World* hisobotida raqamli texnologiyalarning bolalar hayotidagi ikki tomonlama ta'siri tahlil qilinadi. Hisobotda "digital technology can be a game changer for disadvantaged children", ya'ni raqamli texnologiyalar imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun sezilarli o'zgarishlar yaratishi mumkinligi ta'kidlangan [7]. Raqamli resurslar ta'lim, axborot va ijtimoiy muloqot imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli bolaning raqamli avtonomiyasini rivojlantirish texnologiyaga kirish imkoniyatini yaratish bilangina cheklanmasdan, xavfsiz va mas'uliyatli foydalanish kompetensiyasini shakllantirish bilan uyg'un olib borilishi lozim. OECDning bolalar va yoshlarning raqamli muhitdagi hayotiga bag'ishlangan tadqiqotlarida ham raqamli texnologiyalarni mutlaq ijobiy yoki salbiy hodisa sifatida baholashdan voz kechish zarurligi ko'rsatiladi. OECD yondashuviga ko'ra, raqamli muhitdagi natijalar texnologiyadan foydalanish davomiyligining o'zigagina emas, balki foydalanish mazmuni, konteksti, bolaning individual xususiyatlari va oilaviy-ijtimoiy sharoitlarga ham bog'liq [8]. Masalan, bolaning bir soat davomida ta'lim platformasidan foydalanishi bilan shu vaqtni zararli yoki yoshiga mos bo'lmagan kontent bilan o'tkazishi pedagogik jihatdan bir xil baholanmasligi kerak. Raqamli kompetensiyani shakllantirish muammosi Yevropa Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan DigComp konsepsiyasida ham tizimli yoritilgan. DigComp 2.2 modelida axborot va ma'lumotlar savodxonligi, kommunikatsiya va hamkorlik, raqamli kontent yaratish, xavfsizlik hamda muammolarni hal qilish asosiy kompetensiya sohalari sifatida belgilanadi [9]. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib, bolaning raqamli avtonomiyasini faqat qurilmalardan mustaqil foydalana olish bilan tenglashtirish mumkin emas. Haqiqiy avtonomiya axborotni tanqidiy baholash, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, onlayn muloqot qoidalariga rioya qilish va muammoli vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish kompetensiyalarini ham qamrab oladi.

Xalqaro tajribalarni umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, raqamli tarbiyaning samarali modeli "nazoratdan o'zini o'zi nazorat qilishga" tamoyili asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Bolaning yoshi kichik bo'lgan davrda kattalarning bevosita nazorati, aniq qoidalar va birgalikda foydalanish ustunlik qilishi mumkin. Bola ulg'ayib, raqamli savodxonligi va

mas'uliyati ortgani sari tashqi nazoratning ayrim shakllari muzokara, ishonch, maslahat va mustaqil qaror qabul qilish mexanizmlari bilan almashtirilishi kerak. Bunday jarayon avtonomiyani nazoratning inkori sifatida emas, balki to'g'ri tashkil etilgan pedagogik nazoratning rivojlantiruvchi natijasi sifatida talqin qilish imkonini beradi. Shunday qilib, tahlil qilingan ilmiy manbalarda raqamli tarbiya kontekstidagi asosiy muammo texnologiyadan foydalanishni taqiqlash yoki mutlaq erkinlashtirish emas, balki bolaning yoshiga, tajribasiga va raqamli kompetensiyasiga mos dinamik pedagogik muvozanatni shakllantirish ekanligi namoyon bo'ladi. Deci va Ryan avtonomiyaning shaxs rivojidadagi psixologik ahamiyatini asoslagan bo'lsa [1], Livingstone va uning hamkorlari raqamli imkoniyatlar, xavflar va ota-ona mediatsiyasi o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beradi [2; 3; 5]. Valkenburg va hammualliflar mediatsiya strategiyalarining turli shakllarini ko'rsatadi [4], xalqaro tashkilotlarning konseptual hujjatlari esa bolaning raqamli huquqlari, xavfsizligi va kompetensiyasini bir butun tizim sifatida ko'rib chiqishga undaydi [6; 7; 8; 9]. Shu jihatdan raqamli tarbiyaning istiqbolli pedagogik modeli erkinlik – mas'uliyat – xavfsizlik – ishonch – nazorat elementlarining dialektik birligiga asoslanishi lozim.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Olib borilgan nazariy tahlil va xalqaro tajribalarni qiyosiy o'rganish natijalari raqamli tarbiya sharoitida bolaning avtonomiyasi va nazorat o'rtasidagi munosabatni oddiy “erkinlik yoki cheklov” tamoyili asosida izohlash yetarli emasligini ko'rsatdi. Mazkur ikki kategoriya o'zaro qarama-qarshi bo'lishi bilan birga, bolaning raqamli kompetensiyasi va mas'uliyatini shakllantirish jarayonida bir-birini to'ldiruvchi pedagogik mexanizmlar sifatida namoyon bo'ladi. Nazoratning asosiy vazifasi bolaning mustaqilligini cheklash emas, balki xavfsiz raqamli faoliyat uchun zarur chegaralarni yaratish va vaqt o'tishi bilan tashqi nazoratni ichki o'zini o'zi nazorat qilish mexanizmiga aylantirishdan iborat. Tahlil natijasida raqamli tarbiyada pedagogik muvozanatni belgilovchi beshta asosiy komponent ajratildi: avtonomiya, xavfsizlik, mas'uliyat, ishonch va pedagogik nazorat. Ushbu komponentlarning birortasini mutlaqlashtirish barqaror pedagogik natijaga olib kelmaydi. Masalan, xavfsizlikni ta'minlash maqsadida raqamli faoliyatning haddan tashqari cheklanishi bolada mustaqil qaror qabul qilish tajribasining shakllanishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Aksincha, yosh va raqamli tayyorgarlik darajasini hisobga olmasdan berilgan yuqori avtonomiya bolaning kiberxavf, zararli kontent, shaxsiy ma'lumotlarning oshkor etilishi va manipulyativ axborot ta'siriga duch kelish ehtimolini oshiradi. Keyingi yosh bosqichlarida esa bolaning raqamli savodxonligi va mas'uliyati rivojlanishi bilan nazorat shakllari ham o'zgarishi kerak. Bevosita kuzatuv o'rni tushuntirish, kelishuv, maslahat, ishonch va o'zini o'zi nazorat qilish mexanizmlari bosqichma-bosqich egallaydi. Natijada bolaning raqamli mustaqilligi birdan beriladigan erkinlik emas, balki pedagogik jihatdan boshqariladigan rivojlanish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot doirasida nazoratning cheklovchi va rivojlantiruvchi shakllarini farqlash zarurligi ham aniqlandi. Cheklovchi nazorat asosan “mumkin emas”, “foydalanma”, “kirma” kabi taqiqlarga tayanadi. Rivojlantiruvchi nazorat esa bolaga nima sababdan muayyan kontent xavfli ekanini tushuntirish, axborotning ishonchliligini tekshirish usullarini o'rgatish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va muammoli onlayn vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish algoritmlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Shu jihatdan raqamli tarbiyada samarali nazoratning mezoni taqiqlar soni emas, balki bolaning mustaqil va mas'uliyatli qaror qabul qilish qobiliyatining qay darajada rivojlanayotganidir. Xalqaro tajribalar tahlili ota-ona mediatsiyasining mazmunida ham sezilarli transformatsiya mavjudligini ko'rsatadi. An'anaviy modelda kattalar asosan ekran vaqtini cheklash va foydalaniladigan resurslarni nazorat qilishga e'tibor qaratga, zamonaviy yondashuvlarda faol mediatsiya muhim o'rin egallaydi. Bunda ota-ona bolaning internetdagi faoliyati haqida suhbatlashadi, u bilan raqamli kontentni muhokama qiladi, muammoli vaziyatlarga birgalikda yechim izlaydi va

tanqidiy fikrlashni rag'batlantiradi. Mazkur yondashuv nazoratni tashqi majburlash mexanizmidan hamkorlikdagi tarbiya vositasiga aylantiradi.

Bolaning raqamli avtonomiyasini faqat texnik ko'nikmalar bilan baholash metodologik jihatdan yetarli emas. Qurilmani mustaqil boshqarish, dastur o'rnatish yoki internetdan axborot topa olish hali to'liq raqamli avtonomiyani anglatmaydi. Raqamli avtonomiya axborotning ishonchligini tekshirish, shaxsiy ma'lumotlarning qadrini tushunish, raqamli iz oqibatlarini anglash, onlayn muloqotda etik me'yorlarga rioya qilish, kiberxavflarni aniqlash va zarur vaziyatda kattalardan yordam so'rash qobiliyatlarini ham qamrab olishi kerak. Ayniqsa, sun'iy intellekt va algoritmik tavsiya tizimlarining kengayishi raqamli avtonomiya tushunchasiga yangi mazmun kiritmoqda. Natijada media savodxonlik bilan bir qatorda algoritmik va sun'iy intellekt savodxonligi ham zamonaviy raqamli tarbiyaning tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Tahlil asosida raqamli tarbiyada pedagogik muvozanatning quyidagi shartli modeli ishlab chiqildi:

Yoshga mos nazorat → faol mediatsiya → birgalikdagi qaror → mas'uliyatni bosqichma-bosqich topshirish → o'zini o'zi nazorat qilish → raqamli avtonomiya.

Mazkur modelda nazorat va avtonomiya bir-birini inkor qiluvchi emas, balki yagona rivojlanish jarayonining ketma-ket bosqichlari sifatida qaraladi. Dastlab kattalar tomonidan amalga oshiriladigan nazorat bola tajribasi va kompetensiyasi oshgan sari uning ichki mas'uliyati bilan almashadi. Shu tariqa tashqi tartibga solish mexanizmi asta-sekin o'zini o'zi tartibga solish kompetensiyasiga transformatsiyalanadi. Muhokama jarayonida ishonch mazkur modelning bog'lovchi pedagogik kategoriyasi ekanligi ham aniqlandi. Ota-ona yoki pedagog tomonidan doimiy yashirin kuzatuv bolaning xavfsizligini ma'lum darajada ta'minlashi mumkin, biroq uzoq muddatda o'zaro ishonchga salbiy ta'sir ko'rsatish ehtimoli mavjud. Shu sababli nazorat imkon qadar ochiq, tushuntirilgan va bolaning yoshiga mos kelishuvlarga asoslangan bo'lishi lozim.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli tarbiyani faqat oilaning vazifasi sifatida ko'rish ham maqsadga muvofiq emas. "Oila – ta'lim muassasasi – bola" hamkorlik modeli raqamli xavfsizlik va avtonomiyani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabda o'rgatiladigan raqamli xavfsizlik qoidalari oiladagi tarbiya tamoyillari bilan muvofiqlashtirilmasa, bolaga qarama-qarshi talablar qo'yilishi mumkin. Shu sababli pedagoglar uchun raqamli tarbiya bo'yicha metodik tayyorgarlikni kuchaytirish bilan bir qatorda, ota-onalarning raqamli pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish ham zarur. Umuman, natijalar raqamli tarbiya jarayonidagi asosiy maqsad bolani raqamli xavflardan mutlaq ajratish emas, balki ularni anglaydigan, baholaydigan va zarur himoya strategiyasini mustaqil tanlay oladigan shaxsni shakllantirish ekanligini ko'rsatdi. Shu sababli zamonaviy pedagogik yondashuv "bolani raqamli muhitdan himoya qilish"dan "bolani raqamli muhitda o'zini himoya qila olishga tayyorlash"ga yo'naltirilishi lozim. Shunday qilib, raqamli tarbiyada bolaning avtonomiyasi va nazorat o'rtasidagi pedagogik muvozanat o'zgarmas nisbat emas, balki yosh, kompetensiya, tajriba va mavjud xavf darajasiga qarab dinamik ravishda o'zgaradigan tizimdir. Uning samaradorligi nazoratning miqdori bilan emas, bolaning raqamli mas'uliyati, tanqidiy fikrlashi va o'zini o'zi boshqarish kompetensiyasi rivojlanishi bilan baholanishi kerak. Ana shunday dialektik yondashuv avtonomiya va nazorat qarama-qarshiligini bartaraf etib, ularni bolaning xavfsiz, ongli va mas'uliyatli raqamli shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiluvchi yagona pedagogik jarayonga birlashtirish imkonini beradi.

XULOSA

Raqamli tarbiya sharoitida bolaning avtonomiyasi va nazorat o'rtasidagi pedagogik muvozanatni ta'minlash zamonaviy ta'lim va tarbiyaning muhim vazifalaridan biridir.

Tadqiqot natijalari raqamli muhitda avtonomiya va nazoratni bir-birini inkor etuvchi tushunchalar sifatida emas, balki bolaning xavfsiz, mas'uliyatli va mustaqil raqamli faoliyatini shakllantiruvchi o'zaro bog'liq pedagogik omillar sifatida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatdi. Bolaga cheksiz raqamli erkinlik berish ham, uning faoliyatini haddan tashqari nazorat qilish ham barqaror pedagogik natijani ta'minlamaydi. Xalqaro tajribalar tahlili bolaning raqamli avtonomiyasi uning yoshi, psixologik xususiyatlari, raqamli kompetensiyasi va tajribasiga muvofiq bosqichma-bosqich kengaytirib borilishi lozimligini ko'rsatadi. Bunda bevosita tashqi nazorat asta-sekin faol mediatsiya, o'zaro muloqot, kelishuv va ishonchga asoslangan pedagogik hamrohlik bilan almashishi zarur. Natijada bola raqamli muhitda mustaqil qaror qabul qilish, axborotni tanqidiy baholash, shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish va kiberxavflarga ongli munosabat bildirish ko'nikmalarini egallaydi. Tadqiqot asosida "yoshga mos nazorat – faol mediatsiya – birgalikdagi qaror – mas'uliyatni bosqichma-bosqich topshirish – o'zini o'zi nazorat qilish – raqamli avtonomiya" ketma-ketligi raqamli tarbiyaning samarali pedagogik mexanizmi sifatida belgilandi. Ushbu yondashuv nazoratning yakuniy maqsadi bolani doimiy kuzatish emas, balki unda o'z xatti-harakatlarini mustaqil boshqarish va oqibatlarini anglash kompetensiyasini shakllantirish ekanligini ko'rsatadi. Umuman, raqamli tarbiyaning strategik maqsadi bolani raqamli muhitdan ajratish emas, balki uni raqamli muhitda ongli, xavfsiz, axloqiy va mustaqil faoliyat yuritishga tayyorlashdan iborat. Avtonomiya, mas'uliyat, ishonch, xavfsizlik va nazoratning dialektik uyg'unligi bolaning raqamli madaniyatini shakllantirish hamda uni zamonaviy axborot jamiyatining faol va mas'uliyatli subyekti sifatida tarbiyalashning muhim pedagogik sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ryan R. M., Deci E. L. Self-Determination Theory and the Facilitation of Intrinsic Motivation, Social Development, and Well-Being // *American Psychologist*. – 2000. – Vol. 55, No. 1. – P. 68–78.
2. Livingstone S., Helsper E. J. Taking Risks When Communicating on the Internet: The Role of Offline Social-Psychological Factors in Young People's Vulnerability to Online Risks // *Information, Communication & Society*. – 2007. – Vol. 10, No. 5. – P. 619–644.
3. Livingstone S., Blum-Ross A. Parenting for a Digital Future: How Hopes and Fears about Technology Shape Children's Lives. – New York: Oxford University Press, 2020.
4. Valkenburg P. M., Krcmar M., Peeters A. L., Marseille N. M. Developing a Scale to Assess Three Styles of Television Mediation: "Instructive Mediation," "Restrictive Mediation," and "Social Coviewing" // *Journal of Broadcasting & Electronic Media*. – 1999. – Vol. 43, No. 1. – P. 52–66.
5. Livingstone S., Byrne J. Parenting in the Digital Age: The Challenges of Parental Responsibility in Comparative Perspective // Giovannini E., Gottschalk F., Burns T. (eds.). *Children & Young People's Mental Health in the Digital Age*. – Paris: OECD, 2019.
6. United Nations Committee on the Rights of the Child. General Comment No. 25 (2021) on Children's Rights in Relation to the Digital Environment. – Geneva: United Nations, 2021.
7. UNICEF. The State of the World's Children 2017: Children in a Digital World. – New York: UNICEF, 2017.
8. Burns T., Gottschalk F. (eds.). *Educating 21st Century Children: Emotional Well-being in the Digital Age*. – Paris: OECD Publishing, 2019.
9. Vuorikari R., Kluzer S., Punie Y. DigComp 2.2: The Digital Competence Framework for Citizens – With New Examples of Knowledge, Skills and Attitudes. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2022.